



ONG OQIMI VA TASVIRIYLIK

Qarshiyev Bekzod Abdikarim o'g'li
TDAU Samarqand filiali o'qituvchisi
Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada keyingi davr o'zbek adabiyotidagi o'zgarishlar, ong oqimi uslubi, tasviriylik tamoyillari, badiiy idrok va uning rivoya texnikasi, ifodaviylik va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuriladi.

Kalit so'zlar:

Ong Oqimi, tasviriylik, muallif nutqi, ifodaviylik, ichki nutq

Badiiy adabiyotda qanday asar yaratilmasin, u eng avvalo, inson kechinmasi, his-tuyg'usining in'ikosi bo'lib maydonga keladi. Bu jarayon, ayniqsa, roman janrida yaqqol namoyon bo'ladi, ya'ni o'zining yorqin qiyofasini ko'rsatadi. Darhaqiqat, roman – yozuvchi tafakkuri, hayotiy tajribasi, e'tiqodi, olam-u odam haqida teran o'ylarining samarasi o'laroq paydo bo'lar ekan, uning rivojlanish tendentsiyasini asardagi qahramonlar xarakteri boshqarib turadi. "Keyingi davr o'zbek nasri haqida so'z borar ekan, kishi e'tiborini, avvalo, bu jarayondagi rang-baranglik o'ziga tortadi. Zero, milliy adabiyotimizda yaratilayotgan asarlar nafaqat mazmun mohiyatiga ko'ra, balki ifoda shakllari jihatidan ham xilma-xillik kasb etmoqda"[5,21]. Qayd qilingan xilma-xillik o'ziga xos tasviriylik tamoyillarini yuzaga chiqaradi. Ong oqimiga asoslangan rivoya uslubida yozma nutq turlari va ular o'rtasidagi munosabat muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, bunday rivoya ong oqimi tasviridan iborat bo'lgani uchun ong oqimi xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Qog'ozga tushirilayotgan ong oqimi harakati o'z qonunlari, tartib-betartibliklari bilan, fikr xossasini saqlagan holda o'z shakl-shamoyili bilan badiiy ong oqimi matniga aylanadi.

Ma'lumki, badiiy ong oqimi matnini muallif yaratadi. Muallif irodasiga ko'ra rivoya uning tilidan yoki personaj tilidan olib borilishi mumkin. Har ikki holda ham obyekt bitta – qahramon ongi harakatidir. Ong harakati – ichki hodisa miya faoliyati jarayonidir, biroq asar har qanday ong oqimiga asoslanmasin, qahramon tashqi harakatini inkor etmaydi. To'g'ri, asar kichkina hajmda bo'lib, bir soniyalik ong oqimini ham aks ettirishi mumkin. Binobarin, unda ham qanday bir holat yoki harakat zarrasi mavjud bo'ladi. Demak, har qanday ong oqimi nasri tashqi va ichki harakat ifodasidir, albatta, ular nisbati turlicha bo'lishi mumkin, ko'p hollarda tashqi harakat minimum holga kelib qoladi. Qolaversa, ong oqimi tashqi harakat voqea-hodisalarni asosiy o'ringa qo'ymaydi, ong oqimi badiiy ifodasining diqqat markazida ulardan olingan tasavvurlar asosidagi taassurot va kechinmalar turadi, xolos. Biroq bu qahramon o'rni, harakatlarini mantiqan inkor etmaydi. Inson ongi uning barcha faoliyati – xatti-harakati, tutumi, qiliq va odatlari, tuyg'u, sezgi, hissiyot va hokozolarining barchasini birday boshqarib turadi, salbiy xislatlarini jamiyatda qabul qilingan me'yorlar darajasida chegaralaydi. Biroq bu me'yorning yashirin buzilishi, insondagi asliy sifatlarning namoyon bo'lishi yana bir bor insonda ijobiy va salbiy xislatlarning tabiiy zohirligidan dalolat beradi.

Jamiyat hamisha kurashib keladigan barcha insoniy illatlar inson ruhiy dunyosining o'ta murakkab va serqirraligini ko'rsatadi. Insonning tutumi, qilmishlari – barchasi oxir-oqibatda uning ruhiy dunyosiga, hayotiy pozitsiyasiga bog'liqdir. Demak, o'z xatti harakatini har kim o'z qarichi bilan o'lchaydi, birovga yaxshilik tuyulgan narsa birovga yomonlik, birovga to'g'ri narsa o'zgaga noto'g'ri tuyulishi, birov yoqtirganini boshqa birov yoqtirmasligi tabiiy.

Har bir davr o'z muammosi, konsepsiyasi, qiyofasiga ega bo'ladi. Bu hol nafaqat odam, balki jamiyat faoliyatiga ta'sir qilib, uning yo'nalishini ham belgilaydi. Ma'lumki, hayotdagi har bir o'zgarish inson faoliyatisiz kechmaydi. Bu o'zgarishlar, yaratishlar inson sa'y-harakati, uning dunyoqarashi, konsepsiyasiga bog'liq. Akademik D. S. Lixachev qayd etganidek, "Davr insonni chetlab, hech narsa yarata olmaydi. Davr inson va uning maqsadi orqali tasvir omiliga aylanadi. Bunda u har kimga har xil ta'sir etadi, chunki turli davrda insonlarning jamiyatda tutgan o'rni turlichadir. Bu jarayondagi yutuq va kamchiliklarni, siyosiy-ma'rifiy va ma'naviy qarashlarni inson qalb tug'yonisiz, iztirobsiz, ma'naviy dunyosiz tasavvur qilish mumkin emas. Inson – bu umumiy tushuncha. Inson deganda biz ko'proq unda mujassamlashgan umuminsoniy, abadiyatga daxldor tomonlarni nazarda tutamiz. Bunday tomonlardan biri va eng muhimi – tafakkur. Inson tafakkurida o'zgarish bo'lmas ekan, hech bir ijtimoiy narsada o'zgarish bo'lishi dushvordir. Inson tafakkuridagi o'zgarish davr va jamiyatdagi o'zgarish ta'sirida bo'lishi tabiiy hol, o'z navbatida, jamiyatning to'g'ri yo'nalishini belgilash bilan birga, o'zining hayotdagi o'rnini va mavqeyini namoyon etadi hamda insoniyat diqqatini jalb qiladi"[2, 145]. Bu narsa o'zbek romanlarida o'z ifodasini topyapti.

Demak, ularda voqea-hodisalar emas, insonning o'zi, uning o'y-fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiy olami yetakchilik qilyapti, tasvirlanyapti, ochib berilyapti. Ichki kechinmalar, tuyg'ular, hislar in'ikosi orqali inson qiyofasining to'la namoyon bo'lishi badiiylikning muhim mezonidir. Bu hol, o'z navbatida istiqloq adabiyotining o'ziga xosligini belgilaydi. XX asr avvalida yangi o'zbek adabiyoti dunyoga keldi, taraqqiy etdi, rivoj topdi, yuksaldi. Asr so'ngida esa dunyo adabiyotshunosligida bo'layotgan o'zgarishlar o'zbek nasrida ham o'z ko'rinishlarini bera boshladi. Adabiyot qaytadan yangilanish tomon yuz burdi. Yozuvchilarning izlanishlari xilma-xil uslub va usullarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Murod Muhammad Do'st, G'affor Xotamov, Olim Otaxon, Erkin A'zam, Nazar Eshonqul kabi yozuvchilarimiz asarlarida yangicha uslub paydo bo'ldi. Bu esa keyingi davr o'zbek nasri taraqqiyoti tadrijida o'zgacha evrilishlardan xabar beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонова М. Руҳий дунё тасвири. – Тошкент, "Ўзбекистон" , 1997.
2. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент: Янги нашр. 2010.
3. Назаров Б. Ҳаётийлик безавол мезон. – Тошкент: Фан, 1985
4. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. Т. : "Шарқ" нашриёти, 2007.
5. С.Қуронов. Ифода ва ифодавийлик. – Тошкент, 2013